

YANGI O‘ZBEKISTON KONSALTING XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI VA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING POTENSIAL IMKONIYATINI BAHOLASH USULLARI

Musayeva Shoira Azimovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
professori

ORCID: 0009-0000-9577-6976

E-mail: musaeva_shoira@mail.ru

Аннотация

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda konsalting xizmatlari bozorini rivojlantirish istiqbollari va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida xizmatlar bozorining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni, raqamli iqtisodiyotning konsalting faoliyatiga ta’siri hamda xizmatlar samaradorligini oshirish omillari baholandi. SWOT tahlil asosida konsalting xizmatlari bozorining kuchli va zaif jihatlari, mavjud imkoniyatlar va xavf omillari aniqlandi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, marketing faoliyatini takomillashtirish va investitsion muhitni rivojlantirish konsalting xizmatlari samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishlari sifatida asoslandi. Tadqiqot natijalarida konsalting xizmatlari bozorini modernizatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Калит so‘zlar: konsalting xizmatlari, raqamli iqtisodiyot, investitsiya, xizmatlar bozori, marketing, SWOT tahlil, raqobatbardoshlik, innovatsiya, xizmatlar samaradorligi, raqamlashtirish.

Аннотация

В данной статье были проанализированы перспективы развития рынка консалтинговых услуг в Новом Узбекистане и возможности привлечения инвестиций. В ходе исследования была оценена роль сферы услуг в экономическом развитии, влияние цифровой экономики на консалтинговую деятельность и факторы повышения эффективности услуг. На основе SWOT-анализа были определены сильные и слабые стороны рынка консалтинговых услуг, существующие возможности и риски. Внедрение цифровых технологий, совершенствование маркетинговой деятельности и развитие инвестиционной среды были обоснованы как важные направления повышения эффективности консалтинговых услуг. По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации по модернизации рынка консалтинговых услуг и повышению его конкурентоспособности.

Ключевые слова: консалтинговые услуги, цифровая экономика, инвестиции, рынок услуг, маркетинг, SWOT-анализ, конкурентоспособность, инновации, эффективность услуг, цифровизация.

Abstract

This article analyzed the prospects for developing the consulting services market in New Uzbekistan and the potential opportunities for attracting investments. The study evaluated the role of the service sector in economic development, the impact of the

digital economy on consulting activities, and the factors influencing service efficiency. Based on SWOT analysis, the strengths and weaknesses of the consulting services market, existing opportunities, and risk factors were identified. The introduction of digital technologies, improvement of marketing activities, and development of the investment environment were justified as important directions for increasing the effectiveness of consulting services. The research results developed scientific and practical recommendations aimed at modernizing the consulting services market and improving its competitiveness.

Keywords: consulting services, digital economy, investment, service market, marketing, SWOT analysis, competitiveness, innovation, service efficiency, digitalization.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida xizmatlar sohasi milliy iqtisodiyotning barqaror o‘shishini ta’minlovchi muhim tarmoqlardan biri sifatida shakllanmoqda. Xususan, konsalting xizmatlari korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish, boshqaruv tizimini takomillashtirish, investitsion faollikni oshirish va raqobatbardoshlikni mustahkamlashda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, biznes jarayonlarining murakkablashuvi va innovatsion boshqaruvga bo‘lgan ehtiyojning ortishi konsalting xizmatlari bozorining iqtisodiy ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Xalqaro amaliyotda konsalting xizmatlari investitsion muhitni yaxshilash, korxonalar samaradorligini oshirish va iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlovchi muhim boshqaruv instrumenti sifatida e’tirof etiladi.

Jahonda raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, elektron boshqaruv va innovatsion platformalarning rivojlanishi konsalting xizmatlari tarkibi va shakllarining transformatsiyalashuviga olib keldi. Natijada IT-konsalting, investitsion konsalting, moliyaviy va strategik boshqaruv xizmatlariga talab sezilarli darajada oshdi. Bu holat xizmatlar bozorida yuqori malakali mutaxassislar, zamonaviy marketing strategiyalari va raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etishni talab etmoqda.

Yangi O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xizmatlar sektorini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar konsalting xizmatlari bozorining kengayishi uchun qulay institutsional asos yaratmoqda. Mamlakatda investitsion faollikning ortishi, xususi sektor ulushining kengayishi hamda raqamli iqtisodiyot elementlarining joriy qilinishi konsalting xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda. Shu bilan birga, xizmatlar sifati, bozor infratuzilmasi, malakali mutaxassislar salohiyati va xizmatlarni standartlashtirish bilan bog‘liq ayrim muammolar mavjud bo‘lib qolmoqda.

Mazkur sharoitda konsalting xizmatlari bozorini rivojlantirish istiqbollarini ilmiy asosda baholash, investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini aniqlash va xizmatlar samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotning asosiy maqsadi Yangi O‘zbekistonda konsalting xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish,

investitsiyalarni jalb etishning potensial imkoniyatlarini baholash hamda sohani rivojlantirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Konsalting xizmatlari bozori zamonaviy iqtisodiyotning yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi muhim segmentlaridan biri sifatida shakllanib, korxonalar faoliyatini strategik boshqarish, investitsiyalarni jalb qilish va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon iqtisodiyotida xizmatlar sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortib borishi konsalting xizmatlariga bo'lgan talabning kengayishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda konsalting xizmatlari biznes jarayonlarini optimallashtirish, raqamli transformatsiya, investitsion loyihalarni boshqarish va innovatsion rivojlanishni ta'minlashning asosiy instrumentlaridan biri sifatida e'tirof etiladi [1].

Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda konsalting xizmatlari samaradorligi va investitsion jozibadorligini oshirish masalalari alohida o'rin egallaydi. M. Porter raqobat ustunligi nazariyasida xizmatlar bozorida muvaffaqiyatga erishish korxonaning innovatsion boshqaruvi, marketing strategiyasi va bozor muhitiga moslashuvchanligi bilan bog'liqligini asoslab bergan [2]. F. Kotler xizmatlar marketingi konsepsiyasida konsalting xizmatlarining nomoddiy xususiyati, mijoz bilan uzoq muddatli hamkorlik munosabatlari va xizmat sifatining investitsion qarorlar qabul qilishdagi rolini ta'kidlagan [3]. Olimning fikriga ko'ra, xizmatlar bozorida mijozlar ishonchini shakllantirish marketing kommunikatsiyalarining samaradorligi bilan uzviy bog'liqdir.

Raqamli iqtisodiyot va konsalting xizmatlari integratsiyasini o'rgangan Klaus Schwab to'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida raqamlashtirish biznes xizmatlari bozorini tubdan o'zgartirayotganini qayd etadi [4]. Tadqiqotlarda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar va elektron boshqaruv tizimlari konsalting xizmatlari samaradorligini oshiruvchi muhim omillar sifatida baholanadi. Jahon banki va OECD hisobotlarida ham raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi xizmatlar sektorida yangi investitsion imkoniyatlarni shakllantirayotgani ta'kidlangan [5].

Konsalting xizmatlari bozorining investitsion salohiyatini baholash bo'yicha ilmiy yondashuvlarda SWOT tahlil, benchmarking, risk tahlili va iqtisodiy samaradorlik modellaridan keng foydalaniladi. Igor Ansoff strategik boshqaruv nazariyasida korxonalarining bozor imkoniyatlarini aniqlashda tashqi muhit va ichki resurslar uyg'unligini muhim omil sifatida ko'rsatgan [6]. Ushbu yondashuv konsalting xizmatlari bozorida investitsiyalarni jalb qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda amaliy ahamiyatga ega.

MDH mamlakatlari olimlari tadqiqotlarida xizmatlar bozorini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. A. V. Babkin raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar bozori samaradorligini oshirishda elektron platformalar va innovatsion boshqaruv texnologiyalarining rolini asoslagan [7]. V. L. Makarov esa konsalting xizmatlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish investitsion faollik va xizmat sifati o'sishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi [8]. Ushbu ilmiy qarashlar konsalting xizmatlarini rivojlantirishda raqamli infratuzilma muhim strategik omil ekanligini ko'rsatadi.

Mahalliy olimlar tomonidan xizmatlar bozori va marketing faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Sh. Musaeva xizmatlar sohasida marketing kommunikatsiyalarini rivojlantirish va iste'molchilar bilan samarali aloqalarni shakllantirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqan [14]. Tadqiqotlarda xizmatlar korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda integrallashgan marketing strategiyalari muhim ahamiyat kasb etishi qayd etilgan. S. Musayeva va F. Usmanov turizm va servis tashkilotlarida marketing faoliyatini rivojlantirish orqali xizmatlar sifati hamda mijozlar ehtiyojini qondirish darajasini oshirish mumkinligini asoslab bergan [7].

O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sektorini rivojlantirish va investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha qabul qilingan strategik hujjatlar konsalting xizmatlari bozorining institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xususan, Harakatlar strategiyasi hamda davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishga oid qarorlarda xizmatlar sektorida raqamlashtirish, innovatsion boshqaruv va zamonaviy konsalting xizmatlarini kengaytirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [1];[5].

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tizimli yondashuv, marketing tahlili, taqqoslash va raqamli ko'rsatkichlarni baholash usullari qo'llanilgan. Ijtimoiy media platformalaridagi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish uchun ommaviy kuzatuv usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahonda texnologik taraqqiyot asrida raqamli iqtisodiyot konsalting xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish hamda davlat boshqaruv tizimini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Zamonaviy texnologiyalar yaqin kelajakda inson omilini, unga hamrohlik qiladigan korrupsiya va xatolarni minimallashtirishni ta'minlaydigan, statistika, soliq va boshqa hisobotlar to'plashni avtomatlashtiradigan, real vaziyatni tahlil qilish asosida qaror qabul qilishni ta'minlaydigan yuqori texnologiyali davlat boshqaruvi raqamli platformasini yaratishga imkon beradi. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi iqtisodiy jarayonlarning barcha ishtirokchilari o'rtasida turli xil o'zaro ta'sirlarni amalga oshirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanish bilan tavsiflanadi. Raqamli iqtisodiyot xilma-xil bo'lgan axborot, ta'lim, ilmiy va ko'ngil-ochar kontentni yanada tezroq, yanada sifatlirroq va yanada qulayroq tarzda ta'minlaydi.

Darhaqiqat, konsalting xizmat ko'rsatishda tovar va xizmatlar bozorining samaradorligi bevosita iqtisodiy rag'batlantirish tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Bunda asosiy ustunlik - uning doimo ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni rag'batlantirish hisoblanadi.

Bozorda erkin talab va taklif amal qilinib, uni rivojlantirishni rag'batlantirish omiliga katta ahamiyat beriladi. SHuning uchun ham bunda bozor jarayonlariga moslashgan va o'zaro hamkorlik qiluvchi ichki va tashqi muhit shakllanadi. Bunda raqamli iqtisodiyot va uning qo'llanishi yaqin yillarda quyidagi yo'nalishlarini turli

sohalarda raqamli iqtisodiyotning rivojlantirish modellarni 1-jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval
Turli sohalarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning konsalting xizmatlar sifati va samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari¹

№	Raqamli iqtisodiyotni rivojlanish modellari	Turli sohalarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish modellarining konsalting xizmatlar sifati oshirishdagi imkoniyatlari
1	Raqamli strategiya	Tashkilot va xizmatlarni mijozga yo‘naltirilganlik va samaradorlikning yangi darajasiga chiqarish uchun yangi texnologiyalar joriy qilish strategiyasi hamda barcha xizmatlar raqamli, foydalanish uchun oddiy va personallashtirilgan bo‘lishi maqsadga muvofiq.
2	Raqamlashtirish: biznes uchun aqlli ishlash usuli	Raqamlashtirishni AT yordamida o‘zining ichki jarayonlarini va mijozlar bilan o‘zaro aloqalarini shu tarzda yo‘lga qo‘yadigan kompaniyaki, bunda mijozlarga yangi, qulay tajriba yetkaziladi.
2	Raqamli davlat	Dunyoning turli mamlakatlarida elektron hukumatni rivojlantirish dasturi rebrendingdan o‘tmoqda - endilikda bu ko‘proq raqamli hukumat (yoki intellektual millat) hisoblanadi: Avstraliya va Gollandiyada Digital citizen, Singapurda Intelligent Nation, Digital India va b. Intellektual hukumat yo‘lida ko‘plab oddiyroq va qulayroq servislar paydo bo‘lishi lozim, jamiyat esa ularni taqdim etishning raqamli kanallariga to‘liq o‘tishi kerak.
3	Raqamli millat	Rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan Rossiyaliklarning raqamli savodxonlik darajasi - o‘n balli shkalada 5,42 ga teng (ROTSIT tadqiqoti ma‘lumotlariga ko‘ra). Aholi axborot manbasi sifatida internetga tobora ko‘proq murojaat qilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar iste‘mol darajasi o‘smoqda, mamlakat aholisi foydalanayotgan raqamli qurilmalar to‘plamining kengayishi ro‘y bermoqda.
4	Raqamli shahar	Aqlli shahar aholi va mehmonlar uchun qulay va xavfsiz yashashni ta‘minlashi, shaharliklar turmush sifatini oshirishi va biznesning barqaror rivojlanishini ta‘minlashi lozim. SHahar infratuzilmasini aqlli boshqarish kundalik zarur ehtiyojga aylanadi - shaharlar jami dunyo resurslarining 2/3 qismini iste‘mol qiladi va bu iste‘mol samaradorligini oshirib borish talab etiladi.
5	Ochiq ma‘lumotlar	Ma‘lumotlar ochiq bo‘lishi, ya‘ni internetda erkin ulanish imkoni bo‘lishi, ularni osonlik bilan takrorlash, tarqatish, qayta ishlash va takroran foydalanish mumkin bo‘lishi lozim.
6	Raqamli moliya	Raqamli bank - kelajak banki bo‘lib, u mijozlar uchun takliflarni shaxsiylashtirish uchun mobil platformalar va bulutli servislardan foydalanadi. Elektron tijorat ijtimoiy tarmoqlarda faol tarqaladi.
7	Raqamli ta‘lim	Raqamlashtirish butun dunyoda ta‘lim tizimini o‘zgartirishni belgilab beradigan asosiy trend hisoblanadi. YAngi texnologiyalar ularning bilim va ko‘nikmalari kelajakda talab qilinadigan mutaxassislar tayyorlashga yordam beradi. So‘rovda ishtirok etgan IRI ekspertlarining 85foizi malakali AT-kadrlar etishmasligi muammosini qayd etadi. Ta‘lim dasturlari umumiy hajmida AT-mutaxassislar ulushi 14%. «Amaliy informatika», «informatika va hisoblash texnikasi» va «biznes-informatika» eng ommaviy ixtisosliklar hisoblanadi.

¹ Manbalar asosida muallif ishlanmasi

№	Raqamli iqtisodiyotni rivojlanish modellari	Turli sohalarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish modellarining konsalting xizmatlar sifatini oshirishdagi imkoniyatlari
8	Raqamli tibbiyot	Tibbiyotning rivojlanishi raqamlashtirish hisobiga tezlashadi. Tibbiy xizmatlar ko'rsatish xarajatlari pasayib, sifati esa - o'sib boradi. "Aqli" sog'liqni saqlash virtual hospital modeli bo'yicha rivojlanishi lozim bo'lib, bu erda shifokorlar va bemorlar, jumladan, masofadan turib o'zaro aloqa qilishi, barcha zarur axborotlar esa zudlik bilan onlayn paydo bo'lishi mumkin. Internet shifokorlar uchun axborot manbasi, bemorlarni qabulga yozish vositasi va ularga masofadan turib yordam ko'rsatish imkoniyati hisoblanadi.
9	Raqamli savdo	Internet-savdo - respublikani riteyli umumiy hajmining 3 foizga yaqinini tashkil qiladi. Tarmoqqa ulanishning tarqalishi, mobil trafikning ortishi, shuningdek, internet-servislar evolyutsiyasi hisobiga o'sish.

Ilmiy tadqiqotlardan tortib toki ta'mirlash xizmatlarigacha, ta'limdan boshlab toki qariyalar va nogironlarga xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan 160 ta xizmat turlari mavjud bo'lib, murakkab aqliy mehnatdan foydalaniladigan sohalar yuqori o'rinni egallaydi. Xalqaro xizmatlar bozorini o'rganib, ularning natijalari umumlashtirilganda quyidagi tendensiyalarni ko'rish mumkin:

- YAIM tarkibida xizmatlar sohasini ulushi AQSHda 78,5%, Germaniyada 69,1%, Rossiyada 43,4%ni, ushbu sohada yaratilayotgan ish o'rinlari salmog'i esa AQSHda 73,0%, Germaniyada 41,0% va Rossiyada qariyb 30%ni tashkil etadi ;
- kelajakda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari innovatsion texnologiyalar bozorining vujudga kelishi va jadal rivojlanishi, bank-moliya sektorini rivojlantirishning yangi tartiblari shakllantiriladi;
- boshqaruv tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshirish, aholining zamonaviy xizmat turlariga, shu jumladan turizmning turli shakllariga bo'lgan ehtiyojini muntazam oshib borishidan iborat bo'ladi;
- marketing, reklama, menejment va kompyuter xizmatlariga ko'p xarajat talab etadigan yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarini shakllantirish, aholi ehtiyojlari bilan bir qatorda, xizmatlar sohasini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi;
- rivojlangan mamlakatlar uchun an'anaviy hisoblangan moliya, sug'urta, auditorlik, konsalting va injiring xizmatlari muayyan darajada rivojlanadi;
- koronavirus pandemiyasining salbiy oqibatlari rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda turizm, transport, umumiy ovqatlanish va boshqa xizmat turlariga bo'lgan talabni pasayishi orqali xizmat ko'rsatish va servis sohasining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi;
- tovar va xizmatlar bozoridagi iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etish va doimiy rag'batlantirib borish. Bu orqali tovar, mehnat va moliya resurslaridan samarali foydalaniladi;
- mintaqaning investitsiya potensialini oshirish. Bu bilan chet el investitsion oqimlarini investitsiyaviy xizmatlarni amalga oshiruvchi subyektlarga keng jalb etilishiga erishish bilan ta'minlanadi;

- ishlab chiqariladigan mahsulot va ko'rsatiladigan xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish bilan rag'batlantirish va javobgarlikni kuchaytirish orqali yuqori ko'rsatkichlarga erishiladi;

- bozor subyektlarining olib boradigan texnik-texnologik siyosatini modernizatsiyalash uchun maqsadli dasturlar doirasida xo'jalik yuritishning "moslashuvchan" tizimlarini jonlantirish lozim;

- tovar ishlab chiqaruvchi va xizmatlarni ko'rsatuvchi korxonalarda o'z faoliyatni samarali boshqarishga erishish va takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqib, amaliyotga keng joriy etish. Bularning natijasida xom-ashyo va mahsulotlarni qayta ishlash orqali sifatli xizmat ko'rsatish jadallashtiriladi;

- xizmatlar bozorini rivojlantirish, uning tarkibini oziq-ovqat va boshqa xalq iste'moli tovarlari bilan to'ldirish orqali iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishga hissa qo'shadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarda xalqaro tovar va xizmatlar bozorini o'rganib, ularning natijalari umumlashtirish natijasida SWOT tahlilni amalga oshirish iqtisodiyot va aholi turmush farovonligiga uning qanchalik darajada ta'sir eta olish "salohiyati"ni ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval

Mintaqada konsalting xizmatlar bozori samaradorligini oshirish va baholash bo'yicha SWOT tahlili¹

Kuchli tomoni	Imkoniyatlari
<ul style="list-style-type: none"> - iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega soha; - qulay ijtimoiy-iqtisodiy muhit; - savdo-sotiqning ixtisoslashuvi; - tadbirkorlikning katta ulushi; - zamonaviy xizmat turlarining o'sishi; - aholi guruhlari uchun iqtisodiy faoliyat nodoimiy savdo qilish madaniyati. 	<ul style="list-style-type: none"> - yanada kengaytirish va yiriklashtirish; - tez va mukammal ravishda rivojlan- tirish; - ko'p miqdordagi mahsulotni realizatsiya qilish; - ulgurji tovarlarni sotish; - chetdan sotuvchi va xaridorlarni jalb qilish; etish; - ishchanlik orqali daromad olish.
Zaif tomonlari	Xavf-xatar tomonlari
<ul style="list-style-type: none"> - ayrim xizmatlarda narxlarning egiluvchanligi (pullik xizmat); - bir maromda taraqqiy topmaganlik; - tovar zaxiralari hajmining notekisligi; - tavakkalchilik qilish holatlari; - turli nomutanosiblik holatlari 	<ul style="list-style-type: none"> - ichki monopollashuv holatlari; - soha korxonalarining bankrot bo'lishi; - yangi raqobatchi guruhlar paydo bo'lishi; - tovar zaxiralarining sotilmay qolishi; - tovar va xizmatlar uchun turli xil narxlar belgilanishi; - turli o'zgarish va holat paydo bo'lishi.

2- jadvalda tovar va xizmatlar bu insonning bozorda talab va taklif obykti vazifasini o'taydigan muayyan ehtiyojini qondirishga qodir bo'lgan foydali samarani ifodalaydi. Quyidagi xizmat ko'rsatish sohalarida bozor infratuzilmasining rivojlanishini amalga oshirishda ko'maklashish kerak:

¹ Muallif ishlanmasi

- infratuzilma obyektlarini tashkil etishda davlat hokimiyati organlari tomonidan ko‘maklashish, bunda birinchi navbatda informatsion-tijorat tarmoqlarini rivojlantirish, huquqiy, marketing va moliya-kredit mexanizmlarini takomillashtirish;
- boshqa manbalarni, shuningdek, chet el investitsiyalarini keng jalb qilish mexanizmini takomillashtirish;
- o‘zini o‘zi samarali boshqarishi uchun xizmat ko‘rsatish sohasidagi kichik biznes subyektlariga ish maydonlari, bino va inshootlar, sug‘urta sxemalaridan foydalanib moliyalashtirishni bankdan tashqari shaklining mexanizmini joriy etish kabi tadbirlarni amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan.

Konsalting xizmatlari bozori samaradorligini oshirishdagi ustuvor masalalarni hal qilish va baholash uchun quyidagi yo‘nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilandi:

- mintaqada ixtisoslashuv, kooperatsiyalash va integratsiyalash jarayonlarini yanada samarali rivojlantirish. Bu masala ko‘p iqtisodiyot va innovatsion texnomulkchilik shaklidagi korxonalarining faolligini oshirishga xizmat qiladi;
- davlat strukturalari va xo‘jalik yurituvchi obyektlar bilan aloqalarni amalga oshirishda tarmoq servislariga asoslangan, ya‘ni raqamli yoki elektron iqtisodiyotni shakllantirishga mavjud barcha imkoniyatlarini yaratish;
- raqamlashtirish buyumlar internetidan tortib elektron hukumat texnologiyalarigacha bo‘lgan zamonaviy axborot texnologiyalarini «yoppasiga» qo‘llash asosida tovar va xizmatlar sifatini yaxshilash hamda raqamli iqtisodiyotga investitsiyalarni samarali natijasiga ega bo‘lish;
- mahsulot ishlab chiqarish va ko‘rsatilgan xizmatlar natijasida dividendlar olish uchun nafaqat global tarmoqlar nuqtai nazaridan AKT-infratuzilmasini, balki “analogli qo‘shimchalar” - qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish;
- raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini tegishlicha salmoqli mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash hamda xizmatlar ko‘rsatish sohaslarini rivojlantirish uchun mavjud barcha imkoniyatlarni safarbar etish.

Ma‘lumki, bajariladigan konsalting xizmatlarini natijasi sifatida xo‘jaliklarning erishilgan ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini hisoblashda miqdor, qiymat, sifat va nisbiy ko‘rsatkichlari shaklida ifodalash lozim. Bunday sharoitda esa xizmat ko‘rsatishning umumiy iqtisodiy faoliyatiga baho berishda bir xil ko‘rsatkich ya‘ni qiymat ko‘rsatkichlardan foydalanish talab etiladi, shu bilan birgalikda agroxizmatlar faoliyatini ko‘rsatilgan xizmatlar turi bo‘yicha baholaganda asosan samaradorlikning miqdor ko‘rsatkichlari yordamida aniqlash va baho berish mumkin bo‘ladi. Ushbu qayd etilgan ko‘rsatkichlar xizmatlar faoliyatiga atroflicha baho berishga xizmat qilib, ularni iqtisodiyotning o‘zgarishiga qarab takomillashtirib borish talab etiladi.

Bu ko‘rsatkichlar tegishli xizmatlarni bajarishga turli darajada ta‘sir ko‘rsatadi, xizmat ko‘rsatishni intensiv rivojlantirish, mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunda keltirilgan ko‘rsatkichlar xizmat ko‘rsatish mahsulot ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlarda o‘z ifodasini topuvchi ko‘pgina omillarni, ya‘ni, tashkiliy-iqtisodiy va boshqa omillar bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni, tabiat qonuniyatlari va inson ehtiyojlarining o‘zaro

uyg'unligini ta'min etuvchi tizimni o'zida mujassam etgan. SHu bois, xizmatlarni ko'rsatish jarayonlarining amaldagi mavjud ikkita shartli ko'rsatkichlari ham yoritilib o'tildi, bular qo'yidagilardan iborat:

1. Haqiqiy ko'rsatilgan konsalting xizmatlarning rejadagi bajariladigan konsalting xizmatlar bo'yicha olinadigan natijalari:

$$XK_{shart1} = KX_{haqiqiy} \times BX_{reja} \quad (1)$$

Bu erda: XK_{shart1} - xizmatlar ko'rsatish shartli; $KX_{haqiqiy}$ - ko'rsatilgan xizmatlar haqiqiy; BX_{reja} -bajariladigan xizmatlar rejadagi.

YUqorida keltirilgan ko'rsatkichlar xizmat ko'rsatish iqtisodiy samaradorligini hisoblash uchun asos sifatida yetarli emasligi sababli, ularni takomillashtirish asosida har bir ko'rsatkichning ta'sir darajasini aniqlash uchun zanjirli bog'lanish usuli yordamida hisob-kitob qilindi ya'ni mutlaq absolyut va nisbiy ko'rsatkichlar orqali ularni har birining darajasini baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirildi.

Mutlaq absolyut farqlarni aniqlash quyidagicha:

$$XKH_{yo'qot.} = (XK_{reja} - XK_{haq.}) * XK_{shartli} \quad (2)$$

$$XKD_{yo'qot.} = (XK_{reja} - XK_{haq.}) * O'XB \quad (3)$$

2. Nisbiy farqlarni aniqlash quyidagi ko'rinishda:

$$XKH_{o'zgarishi} = \frac{XK_{reja} - \Delta XK_{haq.}}{100} \quad (4)$$

$$XKD_{o'zgarishi} = \frac{XKD_{reja} - \Delta XKD}{100} \quad (5)$$

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari Yangi O'zbekistonda konsalting xizmatlari bozori iqtisodiyotning istiqbolli va yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi segmentlaridan biri sifatida shakllanayotganini ko'rsatdi. Xizmatlar sektorining iqtisodiyotdagi ulushi ortib borishi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi hamda biznes subyektlari faoliyatida professional boshqaruvga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi konsalting xizmatlariga talabning izchil o'sishiga olib kelmoqda. Tahlillar konsalting xizmatlari bozori investitsion faollikni rag'batlantirish, korxonalarining boshqaruv samaradorligini oshirish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishda muhim iqtisodiy instrument vazifasini bajarishini tasdiqladi.

Tadqiqot davomida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi konsalting xizmatlari sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Elektron platformalar, raqamli marketing, onlayn konsalting tizimlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo'llanilishi xizmat ko'rsatish tezligi, aniqligi va samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, raqamlashtirish xizmatlar bozorida yangi biznes modellarining shakllanishiga ham zamin yaratmoqda.

SWOT tahlil natijalari konsalting xizmatlari bozorida qulay ijtimoiy-iqtisodiy muhit, tadbirkorlik faolligi va zamonaviy xizmat turlarining o'sishi asosiy ustunliklar ekanligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ayrim xizmatlar bo'yicha narxlarning yuqoriligi, bozor infratuzilmasining notekis rivojlanganligi hamda raqobat muhiti yetarli darajada

shakllanmaganligi muayyan muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Xavf omillari sifatida ichki monopollashuv, xizmatlar sifati bo'yicha yagona standartlarning yetarli emasligi va bozorda yangi raqobatchilar sonining ortishi qayd etildi.

Tahlillar xalqaro tajriba asosida konsalting xizmatlari bozorini rivojlantirish investitsion muhitni yaxshilash, xizmatlar sifatini standartlashtirish va raqamli infratuzilmani kengaytirish bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda konsalting xizmatlari iqtisodiy boshqaruvning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllangan bo'lib, innovatsion texnologiyalar va raqamli platformalar xizmatlar samaradorligini oshirishda asosiy vosita sifatida qo'llanilmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- konsalting xizmatlari bozorini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va xizmatlar sifati bo'yicha yagona standartlarni joriy etish;
- raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali onlayn konsalting xizmatlari platformalarini rivojlantirish;
- konsalting korxonalarida marketing strategiyalarini takomillashtirish va mijozlarga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini joriy etish;
- investitsion konsalting, IT-konsalting, innovatsion va venchur konsalting xizmatlari ulushini kengaytirish;
- xizmatlar bozoriga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay institutsional muhit yaratish;
- konsalting xizmatlari sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash va ularning raqamli kompetensiyalarini oshirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun konsalting xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

Konsalting xizmatlari bozorining barqaror rivojlanishi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, investitsion faollikni oshirish va xizmatlar sektorining raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Yangi O'zbekiston sharoitida konsalting xizmatlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida raqamlashtirish, innovatsion boshqaruv va xalqaro standartlarga mos xizmatlar tizimini shakllantirish muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-mart 166-son "2021 - 2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-5348948>
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini himoya qilish mamlakat taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir. - T.: O'zbekiston, 2017.- 48 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Biz buyuk kelajakni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. - T.: O'zbekiston, 2017.- 488 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. - Xalq nutqi, 2020-yil 26-yanvar.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-3107036>

6. Azimovna, M. S. (2022). Professor of Samarkand Institute of Economic and Service, Samarkand, Uzbekistan. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences, 1(9), 20-23.

7. Musayeva, S., & Usmanov, F. (2022). Ways to develop marketing activities in tourist organizations. Science and innovation, 1(A5), 84-88.

8. Azimovna, M. S., Ilkhomovna, U. D., & Shokhrukhovich, U. F. (2022). Issues of improving productivity competition in agriculture. ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali.-2022.-C, 51-53.

9. Azimovna, M. S., Ilkhomovna, U. D., & Shokhrukhovich, U. F. (2022). The role of marketing in increasing the economic efficiency of service enterprises.

10. Azimovna, M. S., Ilkhomovna, U. D., & Shokhrukhovich, U. F. (2022). The concept of a correct marketing policy in trade and service enterprises.

11. Musayeva, S. (2022). Studying the organization of advertising activities of goods at "samarkand tea packaging factory" JSC. Science and innovation, 1(A6), 185-192.

12. Musayeva, S. (2022). Prospects for the development of "stekloplastik" llc activity in the conditions of the market economy. Science and innovation, 1(A6), 539-546.

13. Azimovna, M. S., Ilkhomovna, U. D., & Shokhrukhovich, U. F. (2022). Importance and Characteristics of Brand Choice in Services. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 1-3.

14. Musaeva Sh. A. Marketing tadqiqotlari. Darslik “STAR-SEL” MChJ nashriyot va ijodiy bo‘limi. Samarqand-2023

15. Musaeva Sh. A. Integrallashtirilgan marketing kommunikatsiyasi O‘quv qo‘llanma “Mahorat” nashriyoti, Samarqand -2022.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**